

“TASDIQLANGAN”
“Invest Finance Bank”
aksiyadorlik jamiyati
(emitentning nomi)

Kuzatuv kengashi raisi
B.N.Burxanov

(jamiyat kuzatuv kengashi raisining F.I.Sh. va imzosi)

2026-yil “24” iyun

M.O‘.

“RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Istiqlolli loyihalar milliy agentligi
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi)

Direktorning birinchi o‘rinbosari
Y. Pak

(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ vakolati shaxsining lavozimi, F.I.Sh., imzo)

2026 yil “24” iyun, POB20-17 – son

M.O‘.

AKSIYALAR CHIQRILISHI TO‘G‘RISIDAGI QAROR
“Invest Finance Bank” aksiyadorlik jamiyati
(emitentning to‘liq nomi ko‘rsatiladi)

Identifikatsiya raqami berildi:

R U 1 1 7 P O B 2 0 R 2

Egasi nomi yozilgan oddiy hujjatsiz shakldagi 800 000 000 (sakkiz yuz million) dona nominal qiymati
1 000 (bir ming) so‘m bo‘lgan aksiyalar.
(aksiyalar turi va soni, ularni chiqarish shakli, nominal qiymati ko‘rsatiladi)

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar yopiq obuna orqali joylashtiriladi.
(aksiyalarni joylashtirish usuli ko‘rsatiladi)

Aksiyalarning ushbu chiqarilishi o‘n yettinchi chiqarilishdir.
(chiqarilishning tartib raqami)

“InFinBank” AJ Kuzatuv kengashi majlisining 2026-yil 24-iyundagi qarori.
(emitentning aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlagan organi ko‘rsatiladi)

“InFinBank” AJ Kuzatuv kengashi majlisining 2026-yil 24-iyundagi qarori asosida.
(emitentning aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorni qabul qilgan organi ko‘rsatiladi)

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili, muloqot telefonlari va elektron pochta manzili – 100000,
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 17-B uy.
Telefon: (71) 202-50-60, elektron pochta manzili: info@infinbank.com.

Emitentning rahbari:



Bosh buxgalter:

Muhr

B.S. Djurayev

A.A. Saxabiddinova

Sana: 2026-yil 24-iyun

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishiga doir hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi – «KAPITAL-DEPOZIT» mas‘uliyati cheklangan jamiyati
Investitsiya maslahatchisi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi – 2012-yil 01-avgustdagi 16/K12-sonli shartnoma
Investitsiya maslahatchisi rahbarining F.I.Sh. va imzosi – Direktor Xodjayev Farrux Raximjanovich



Muhr

Sana: 2026-yil 24-iyun

1. Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi – egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar.
 2. Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli – hujjatsiz.
 3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati – 1 000 (bir ming) so‘m.
 4. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni - 800 000 000 (sakkiz yuz million) dona.
 5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi – 800 000 000 000 (sakkiz yuz milliard) so‘m.
 6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar egalari huquqlari – Bankning aksiyalari egasi quyidagi huquqlarga ega:
 - Bankning aksiyadorlari reyestriga kiritilish;
 - Depo hisob varag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma olish;
 - Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
 - Bank tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
 - Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;
 - Bankning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
 - Olgan dividendini erkin tasarruf etish;
 - qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;
 - O‘ziga yetkazilgan zararining o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
 - O‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
 - Qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish;
 - Bank aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o‘z vakiliga (vakillariga) berish;
 - Bank tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar va ularning narxnomalari to‘g‘risida axborot olish;
 - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bank Ustavi bilan belgilangan boshqa huquqlar.
 7. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olinishiga nisbatan jamiyat ustavidagi va/yoki chiqarilish to‘g‘risidagi qarordagi har qanday cheklashlar – Bank ustaviga va aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga ko‘ra Bankning ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo‘lmish aksiyadorlar chiqarilayotgan aksiyalarni o‘zlari ega bo‘lgan ovoz beruvchi aksiyalar soniga mutanosib miqdorda imtiyozli sotib olishga haqidirlar. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugagan yoki aksiyadorlar tomonidan imtiyozli huquq qo‘llanilmagan taqdirda, chiqarilayotgan aksiyalar yopiq obuna orqali Bank aksiyadorlari o‘rtasida aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga muvofiq joylashtiriladi.
 8. Bank ustav kapitalining miqdori - 1 440 000 000 000 (bir trillion to‘rt yuz qirq milliard) so‘m.
 9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo‘yicha taqsimlangan holda ko‘rsatiladi) – Nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m bo‘lgan 1 140 000 000 (bir milliard bir yuz qirq million) dona hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan oddiy hamda 300 000 000 (uch yuz million) dona hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar.
 10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni (turlari va ko‘rinishlari bo‘yicha taqsimlangan holda ko‘rsatiladi) – Bank ilgari obligatsiyalarni muomalaga chiqarmagan.
 11. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi.
 - 11.1. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna):
(Yopiq obuna bo‘lgan taqdirda, shuningdek, aksiyalarni potensial oluvchilar doirasi ham ko‘rsatiladi).
- Aksiyalar aksiyadorlik jamiyatining amaldagi aksiyadorlariga imtiyozli sotib olish huquqi taqdim etilgan holda, yopiq obuna orqali quyidagicha joylashtiriladi:**

№	Aksiyadorlar	Joylashtiriladigan aksiyalar soni (dona)
1.	Mamatdjanov Farxod Faxritdinovich	282 119 673
2.	Abdusamadov Parviz Maxsudovich	18 000 000
3.	«PRESTIJ RIELT» MChJ XK	159 132 676
4.	«AZIA TRANS TERMINAL» MChJ	40 747 651
5.	«UZTEX TASHKENT» MChJ	300 000 000

11.2. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati:

(Ko‘rsatiladi: aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi va tugatish sanasi yoki aksiyalarni joylashtirish muddatini belgilash tartibi. Agar aksiyalarni joylashtirish muddati aksiyalarni chiqarilishi to‘g‘risidagi biron-bir axborotni oshkor qilish sanasini ko‘rsatgan holda belgilansa, shuningdek, bunday axborotni oshkor qilish tartibi ham ko‘rsatiladi.)

Chiqarilayotgan aksiyalar vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 365 (uch yuz oltmish besh) kun muddatda joylashtiriladi.

- Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – Aksiyalar chiqariluvchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi xabar va imtiyozli huquqning amal qilish muddati bildirishnomasi qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartib va muddatlarda ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan kundan e‘tiboran 11 (o‘n birinchi) kun, biroq imtiyozli sotib olish huquqining amal qilish muddati o‘tguniga qadar Bankning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to‘g‘risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo‘lsa, aksiyalarni joylashtirish ushbu arizalar kelib tushgan kundan keyingi ish kunida boshlanadi.

Agar aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, unda aksiyalarni joylashtirish keyingi birinchi ish kunida boshlanadi.

- Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – Mazkur chiqarilishning so'nggi aksiyasi joylashtirilgan kun. Biroq aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi, mazkur chiqarilish vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 365 (uch yuz oltmish besh) kundan oshmasligi lozim.

11.3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi:

(Ko'rsatiladi: aksiyalar joylashtirilishining borishida fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzilishining tartibi va shartlari, joylashtirish amalga oshiriladigan bozorlar.

Agar emitent tomonidan aksiyalarni joylashtirish emitentga aksiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarini (anderrayerlar) jalb qilish bilan amalga oshirilsa, har bir bunday shaxs yuzasidan qo'shimcha ravishda quyidagilar ko'rsatiladi:

to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi;

professional faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziyaning raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati, ko'rsatilgan litsenziyani bergan organ; ushbu shaxsning asosiy vazifalari, agarda emitent va unga qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi shaxs o'rtasidagi shartnomada shu kabi shartnoma bilan belgilangan muddatlarda joylashtirilmagan aksiyalarni oxirgisi tomonidan o'z hisobidan olinishi nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek, ushbu muddat va uni belgilash tartibi.)

Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar Bank tomonidan mustaqil ravishda, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarini jalb etmasdan, joylashtiriladi. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalarni joylashtirish "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 35–36-moddalariga asosan Bank aksiyadorlariga imtiyozli sotib olish huquqini taqdim etgan holda, yopiq obuna orqali amalga oshiriladi.

Aksiyalar imtiyozli sotib olish huquqi orqali joylashtirilayotganda aksiyadorlar bilan uyushmagan birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida to'g'ridan to'g'ri fuqarolik-huquqiy bitimi tuziladi. Aksiyadorlar tomonidan imtiyozli huquq qo'llanilmagan yoki imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugagan taqdirda barcha aksiyalar yopiq obuna orqali qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchasida qonunchilikda belgilangan tartibda, savdo tashkilotchisining qoidalariga muvofiq bitim tuzish yo'li bilan quyidagicha joylashtiriladi:

№	Aksiyadorlar	Joylashtiriladigan aksiyalar soni (dona)
1.	Mamatdjanov Farxod Faxritdinovich	282 119 673
2.	Abdusamadov Parviz Maxsudovich	18 000 000
3.	«PRESTIJ RIELT» MChJ XK	159 132 676
4.	«AZIA TRANS TERMINAL» MChJ	40 747 651
5.	«UZTEX TASHKENT» MChJ	300 000 000

11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:

Markaziy depozitariy haqida ma'lumot:

Nomi – "Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyati;

Joylashgan joyi va pochta manzili – 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi 107-uy;

Telefon – 71 267-37-42, Faks: 71 267-36-42.

Qimmatli qog'ozlar egalari huquqlarini hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi haqida ma'lumot:

To'liq nomi: "Kapital-Depozit" mas'uliyati cheklangan jamiyati;

Joylashgan joyi va pochta manzili – 100052, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Oqqo'rg'on ko'chasi 25-uy, telefon: 71 286-20-32, Faks: 71 286-20-31.

11.5. Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:

(Joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq taqdim etilgan taqdirda quyidagilar ko'rsatiladi:

bunday imtiyozli huquqqa ega shaxslarning ro'yxati tuzilgan sana (sanani belgilash tartibi);

joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish ehtimoli to'g'risida bildirish tartibi;

joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi.)

Aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi – Bankning aksiyalarini imtiyozli sotib olish huquqiga ega shaxslarning ro'yxati 2026 yil 24 iyun holatiga shakllantirilgan Bankning aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

Bank aksiyalarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran 5 (besh) kun ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali o'zining imtiyozli huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlariga aksiyalarni mazkur aksiyadorlarda mavjud bo'lgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda teng shartlarda olishni taklif etadi.

Bildirishnoma matnida joylashtirilayotgan aksiyalarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Imtiyozli sotib olish huquqining amal qilish muddati bildirishnoma e'lon qilingan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kun davomida amal qiladi.

Imtiyozli sotib olish huquqining amal qilish muddati, agar bu muddat o'tguniga qadar Bankning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli sotib olish huquqidan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, tugaydi.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlar aksiyalarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan aksiyalarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni Bankga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqlidirlar. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida Bankga taqdim etilishi kerak.

11.6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi:

(aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi ko'rsatiladi.

Agar aksiyalarni joylashtirishda aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq taqdim etilsa, qo'shimcha ravishda bunday imtiyozli huquqqa ega shaxslarga baho yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi ko'rsatiladi.)

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 1 000 (bir ming) so'm narxda joylashtiriladi.

11.7. Aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi:

(Aksiyalarni to'lash shartlari, tartibi, shu jumladan hisob-kitoblarning shakli, kredit tashkilotlarining to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, ularning joylashgan joyi, aksiyalar to'lanishiga kelib tushadigan pul vositalari ko'chirilishi lozim bo'lgan hisobvaraqlarning bank rekvizitlari, to'lov shoxobchalarining manzili (naqd pul shaklida to'langanda).

Aksiyalar pul bo'lmagan vositalar bilan to'langan taqdirda aksiyalar to'lanishi mumkin bo'lgan mol-mulk, to'lov shartlari bunday to'lov sharoitida rasmiylashtiriladigan hujjatlar (mol-mulkni qabul qilish — topshirish dalolatnomasi va hokazo) bilan, shuningdek, bunday mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun jalb qilinadigan baholovchi (baholovchilar) to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

baholovchining to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi;

baholash faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyaning raqami, berilgan sanasi va litsenziyaning amal qilish muddati, ko'rsatilgan litsenziyani bergan organ.)

Aksiyalar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Aksiyalarni joylashtirish jarayonida aksiyalar uchun to'lovlar faqat pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi.

Aksiyalarni joylashtirish jarayonida aksiyalar uchun to'lovlar naqd va/yoki naqdsiz shaklda, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 17-B uy manzili bo'yicha joylashgan "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyati (qisqa nomi — «InFinBank» AJ) Bosh ofisidagi 29830000800001041023 hisob raqamiga qabul qilinadi, Bank kodi: 01041.

Bank aksiyalari uchun to'lovlar aksiyalarni joylashtirish muddati ichida amalga oshirilishi kerak.

11.8. Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi:

Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb tan olingan taqdirda aksiyalar uchun to'langan mablag'larning qaytarilishi quyidagicha amalga oshiriladi:

"InFinBank" AJ tomonidan ushbu holat to'g'risida o'rnatilgan tartibda rasmiy ma'lumot (Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini amalga oshmagan deb topish muhim fakti — 28 yoki Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini haqiqiy emas deb topish muhim fakti — 29) Bankning rasmiy veb-saytida (www.infinbank.com), Korporativ axborotning yagona portalida (www.openinfo.uz) e'lon qilinadi.

Aksiyalar chiqariluvini amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan sanadan so'ng 5 (besh) ish kuni davomida aksiyalar uchun to'langan mablag'lar Bank tomonidan aksiyadorlarning bank hisob raqamlariga o'tkazib berish orqali qaytariladi.

12. Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi (qo'shimcha chiqarilishi) to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilish tartibi:

Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi axborotning oshkor qilinishi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot (qimmatli qog'ozlarni chiqarish muhim fakti — 25) va qonunchilik bilan belgilangan boshqa ma'lumotlar, aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng qonun hujjatlari bilan o'rnatilgan muddatda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Axborot-ma'lumot tizimi manzili — www.infinbank.com, www.openinfo.uz.

Bank qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qarorining asli va nusxasi bilan Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 17-B uy manzili bo'yicha joylashgan «InFinBank» AJ Bosh ofisida, nusxalari bilan esa bankning barcha filiallarida tanishish mumkin.

13. Boshqa ma'lumotlar.

13.1. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning nomi, emitentning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanasi va raqami — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2007-yil 24-dekabrda 75-raqam bilan ro'yxatga olingan.

13.2. To'liq pochta manzili — 100000, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 17-B uy.

13.3. Emitent soliq organining nomi va STIR — Mirobod tumani davlat soliq inspeksiyasi, STIR: 206 942 764.

13.4. Asosiy faoliyat turlari va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning (xizmatning) turlari — Bank xizmatlari.

13.5. Davlat statistika organi tomonidan berilgan kodlar:

Korxonaning xos raqami KTUT (OKPO) — 22220067;

XXTUT bo'yicha asosiy faoliyat turi (OKED) — 64190;

MSHT bo'yicha mulkchilik shakli (KFS) — 144;

Manzili bo'yicha MXOBT to'liq xos raqami (SOATO) — 1726273;

TXSH bo'yicha tashkiliy-huquqiy shakli (KOPF) — 153.

Акциялар чиқариш тўғрисидаги қарори

Рақамланди, тикилди 5 варақда.

Рахбар _____

Бош бухгалтер _____

